ZAMONAVIY HAYOTDA SHAXS DUNYOQARASHIGA INTERNETNING SALBIY TA’SIRI

Xasanov Boburjon Xakimovich
O‘zbekiston Respublikasi Prezidneti huzuridagi
Davlat siyosati va boshqaruv Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi
sherzodxamrayev1990@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv sharoitida raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar yordamida shakllanayotgan “raqamli dunyoqarash” tushunchasi tahlil qilinadi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot oqimi yoshlar dunyoqarashiga qanday ta’sir ko‘rsatayotgani va ularning shaxsiy qarashlariga global tendensiyalarning qanday ta’sir qilayotgani tadqiq etiladi. Shuningdek, raqamli dunyoqarashning afzalliklari va kamchiliklari, algoritmik filtrlar, “filtr pufagi”, “echo effect”, virtual do‘stlik va guruhlar kabi omillarning raqamli dunyoqarash shakllanishidagi roli muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda yoshlarning raqamli dunyoqarashi shakllanishi jarayonida mahalliy madaniyat va qadriyatlarga e’tibor qaratish zaruriyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: raqamli dunyoqarash, globallashuv, ijtimoiy tarmoqlar, virtual do‘stlik, yoshlar dunyoqarashi.

Аннотация: В данной статье анализируется понятие «цифрового мировоззрения», которое формируется с помощью цифровых технологий и социальных сетей в условиях глобализации. В социальных сетях обсуждается, как информационные потоки влияют на мировоззрение молодежи и как глобальные тенденции влияют на ее взгляды. Также будут обсуждены преимущества и недостатки цифрового мировоззрения, роль в формировании цифрового мировоззрения таких факторов, как алгоритмические фильтры, «фильтр-пузырь», «эхо-эффект», виртуальная дружба и группы. Результаты исследования показывают, что в процессе формирования цифрового мировоззрения молодежи в Узбекистане необходимо уделять внимание местной культуре и ценностям.

Ключевые слова: цифровое мировоззрение, глобализация, социальные сети, виртуальная дружба, молодежное мировоззрение.

Abstract: This article analyzes the concept of "digital worldview" that is formed with the help of digital technologies and social networks in the context of globalization. How the flow of information through social networks affects the

DOI: 10.5281/zenodo.24240572

worldview of young people and how global trends affect their personal views is studied. Also, the advantages and disadvantages of the digital worldview, the role of factors such as algorithmic filters, “filter bubble”, “echo effect”, virtual friendship and groups in the formation of the digital worldview are discussed. The results of the study show the need to pay attention to local culture and values in the process of forming the digital worldview of young people in Uzbekistan.

Keywords: digital vision, globalization, social networks, virtual friendship, youth outlook.

Kirish. Hozirgi kunda globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib, inson hayotining har bir qismiga chuqur kirib kelmoqda. Raqamli dunyoning ta’siri ostida shakllangan yangi axborot muhiti insonlarning shaxsiy, ijtimoiy va madaniy dunyoqarashiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan keng qamrovli axborot oqimlari va global tendensiyalar inson dunyoqarashini shakllantiruvchi kuchli omilga aylangan. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali insonlar cheksiz miqdordagi axborot, madaniyat, g‘oyalar va turli nuqtai nazarlarga duch kelmoqdalar, bu esa ularning dunyoqarashida yangi shakllanish jarayonlarini yuzaga keltirmoqda.

Globallashuv jarayonida milliy va madaniy chegaralar borgan sari yo‘qolib, turli madaniyatlar va dunyoqarashlarning o‘zaro aralashuvi yuzaga kelmoqda. Raqamli texnologiyalar, xususan, ijtimoiy tarmoqlar bu jarayonni yanada tezlashtirib, axborot almashinuvi va o‘zaro madaniy ta’sirlarni kuchaytirmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda berilayotgan global va mahalliy yangiliklar, turli xil madaniyat va qadriyatlar haqidagi kontent insonlarning dunyoqarashini qayta shakllantirishga yordam bermoqda. Bu jarayonda shaxslarning dunyoqarashi raqamli muhitda o‘zgarib boradi, ya'ni ularning qarashlari va e’tiqodlari global tendensiyalar ta’sirida transformatsiyaga uchraydi. Shu jihatdan, globallashuv sharoitida shakllangan dunyoqarashning yangi ko‘rinishi – “Raqamli dunyoqarash” tushunchasi paydo bo‘ldi.

“Raqamli dunyoqarash” zamonaviy texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali shakllangan yangicha dunyoqarashni ifodalashda foydalaniladi. Bu tushuncha orqali shaxsning raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali shakllangan yangi, o‘ziga xos dunyoqarashi tahlil qilinadi. Bunda shaxs, bir tomondan, o‘z madaniyati va qadriyatlarini saqlab qolishga intiladi, boshqa tomondan esa global axborot oqimining ta’sirida yangi g‘oyalar, nuqtai nazarlar va qadriyatlarni o‘ziga singdiradi.

“Raqamli dunyoqarash” tushunchasi zamonaviy globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida shakllangan yangicha dunyoqarashni ifodalaydi. Bu

tushuncha, shaxsning ijtimoiy tarmoqlardagi axborot oqimlari orqali o‘z dunyoqarashini qanday shakllantirayotgani va o‘zgartirayotganini o‘rganishga imkon beradi. “Raqamli dunyoqarash” global miqyosda mavjud bo‘lgan turli madaniyatlar, qadriyatlar va ijtimoiy tendensiyalarni shaxs ongida aks ettiruvchi noyob konsepsiya sifatida ilmiy maydonga kirib kelgan.

Raqamli dunyoqarashning ahamiyati shundaki, u orqali ijtimoiy tarmoqlardagi cheksiz axborot oqimining inson dunyoqarashiga qanday ta’sir ko‘rsatishi o‘rganiladi. Bunda shaxs turli madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy g‘oyalarni raqamli muhitda tez-tez qabul qiladi va bu g‘oyalar shaxs qarashlariga yangi nuqtai nazarlar olib kiradi. Shunday qilib, ijtimoiy tarmoqlarda shakllangan raqamli dunyoqarash shaxsning turli qarashlarni sintez qilish, moslashish va global hodisalarga tez javob berish qobiliyatini shakllantiradi.

Raqamli va an’anaviy dunyoqarashning o‘ziga xosliklari jihatlari mavjud. Bunda raqamli dunyoqarash bilan an’anaviy dunyoqarash o‘rtasida bir qator farqlar mavjud bo‘lib, ular har birining shakllanish usuli, manbalari va ko‘lamiga bog‘liq, jumladan:

Shakllanishi: Raqamli dunyoqarash global hodisalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali shakllangan fikrlar va e’tiqodlarni aks ettiradi. An’anaviy dunyoqarash esa asosan mahalliy madaniyat, urf-odat va qadriyatlarga asoslanadi, bunda oila, mahalla, ta’lim muassasalari kabi lokal manbalar asosiy rol o‘ynaydi.

Manbalarning xilma-xilligi va doimiy yangilanishi: Raqamli dunyoqarash ijtimoiy tarmoqlardagi doimiy yangilanib turuvchi global axborot oqimlari orqali boyib boradi. Foydalanuvchilar faqat bir yoki ikki madaniyat doirasidagi g‘oyalardan tashqari turli xalqlar, millatlar, va ijtimoiy qatlamlarga oid turli axborotlarga ega bo‘ladi. An’anaviy dunyoqarashda esa axborotning manbalari kamroq va uzoq yillar davomida o‘zgarmasligi mumkin.

Axloqiy va madaniy qadriyatlarning shakllanishi: Raqamli dunyoqarash global me’yorlar va madaniy tendensiyalarga asoslangan holda shakllangan bo‘lsa, an’anaviy dunyoqarash ma’lum bir hududga oid qadriyatlar bilan cheklanadi. Masalan, raqamli dunyoqarashga ega bo‘lgan shaxs global iste’mol madaniyatini qabul qilishi mumkin, lekin an’anaviy dunyoqarashga ega inson ko‘proq o‘z milliy madaniyati va urf-odatlariga mos turadi.

Qobiliyati va moslashuvchanlik: Raqamli dunyoqarash shaxsning yangilikka va o‘zgarishlarga tez moslashuvchanligini oshiradi, chunki ijtimoiy tarmoqlar orqali har kuni yangilanayotgan turli fikrlar oqimida yashash natijasida shaxs qarashlari ham o‘zgarib boradi. An’anaviy dunyoqarash esa ko‘proq mustahkam va o‘zgarmas bo‘lib, yangi g‘oyalarga nisbatan shubha bilan qarash, yangilikka qarshi o‘zini himoya qilish kabi xususiyatlarga ega.

Bu farqlar orqali shuni ko‘rish mumkinki, raqamli dunyoqarash nafaqat ijtimoiy va madaniy darajada, balki axloqiy va shaxsiy e’tiqod darajasida ham an’anaviy dunyoqarashdan farq qiladi. Shu tariqa, “Raqamli dunyoqarash” tushunchasi bugungi kunning yangi madaniy, ijtimoiy va axloqiy jarayonlarini tushunishda muhim ilmiy tushunchaga aylanmoqda.

Globallashuv jarayoni bilan axborotning tarqalish tezligi va miqdori sezilarli darajada oshdi. Internet va raqamli texnologiyalar yordamida dunyo bo‘ylab millionlab odamlar o‘z fikrlari, madaniyatlari va qadriyatlari bilan tez va oson tarzda bo‘lisha oladilar. Bu jarayon madaniyatlar va xalqlar o‘rtasidagi chegaralarni yo‘qotib, ularning o‘zaro integratsiyalashuvini kuchaytirdi. O‘tmishda axborotning bunday darajada tez tarqalishi mumkin bo‘lmagan, bugungi kunda esa ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot bir necha soniya ichida butun dunyoga yetib boradi.

Ijtimoiy tarmoqlar axborotni oddiy iste’moldan tashqari uni yaratish va tarqatish uchun ham kuchli platformaga aylandi. Shu tariqa, ijtimoiy tarmoqlar dunyoqarash shakllanishida universal manba sifatida tanildi, ya'ni u nafaqat ma’lum bir milliy yoki mahalliy chegaralar ichidagi axborotni, balki turli madaniyat va ijtimoiy tendensiyalarni bir joyda birlashtiradi. Natijada, odamlar global masalalar, hodisalar va turli nuqtai nazarlar haqida keng ma’lumot olish imkoniga ega bo‘lib, bu ularning shaxsiy dunyoqarashiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlardagi kontent shakli va mazmuni sababli, shaxslar dunyoqarashi raqamli muhitda yangi ko‘rinishda shakllanmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan global yangiliklar, videolar, tendensiyalar, va foydalanuvchilarning interaktiv ishtiroki shaxsning axborotni qabul qilishini va uni qayta talqin qilishini yangi darajaga olib chiqmoqda. Ayniqsa, internet foydalanuvchilari o‘ziga yoqqan yoki qiziq bo‘lgan kontentga ko‘proq e’tibor berib, boshqa axborotlarni rad etishadi, natijada ular “filtr pufagi” va “echo chamber” ta’siriga tushib qolishlari mumkin. Bu jarayonda shaxs faqat o‘z qarashlari bilan mos keluvchi axborotlarni qabul qilib, o‘z dunyoqarashini toraytirishi yoki undagi qiyofalarni o‘zgartirishi ehtimoli ortadi.

Ijtimoiy tarmoqlarda global tendensiyalarning shaxs dunyoqarashiga ta’siri yana bir qator omillar orqali namoyon bo‘ladi:

Global madaniyat va qadriyatlarga moslashuv: Ijtimoiy tarmoqlarda tarqaladigan global hodisalar va mashhur madaniy tendensiyalar, masalan, ma’lum bir turmush tarzi yoki iste’mol madaniyati yoshlar dunyoqarashini global qadriyatlarga moslashtirishga olib keladi. Ular milliy qadriyatlar bilan cheklanmasdan, dunyo miqyosida tarqalgan yangilik va yangicha madaniy me’yorlarni o‘zlashtira boshlaydilar.

Raqamli identifikatsiya: Ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘zini global hodisalarga oid bir qator ko‘rinishlar asosida tanishtirish va shu orqali shaxsning o‘zini global identifikatsiyaga ega his qilishi raqamli dunyoqarash shakllanishiga zamin yaratadi. Masalan, “meme” madaniyati, global bayramlar va boshqa raqamli tendensiyalar shaxsning identifikatsiyasiga yangi qiyofa beradi.

Tashqi dunyo bilan bog‘liqlik: Ijtimoiy tarmoqlar shaxslar va guruhlar o‘rtasidagi muloqotni kengaytirib, ularga yangi qarashlar va g‘oyalar bilan tanishish imkonini beradi. Shu tariqa, insonlar o‘zlariga yaqindan bog‘liq bo‘lmagan voqea-hodisalarni o‘ziga yaqin his qila boshlaydilar, bu esa ularning dunyoqarashida xalqaro miqyosdagi hodisalarga ham alohida o‘rin ajratishlariga olib keladi. [1]

Natijada, ijtimoiy tarmoqlarda shakllangan bu raqamli dunyoqarash shaxsni raqamli muhitga bog‘liq, tez-tez o‘zgaruvchan va yangiliklarga moslashuvchan dunyoqarash bilan ta’minlaydi. Shuning uchun, bugungi kunda globallashuvning ijtimoiy tarmoqlar orqali shaxs dunyoqarashiga ta’siri nafaqat o‘rganishga arziydi, balki bu tushuncha zamonaviy falsafa va sotsiologiya uchun ham dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarda axborotning foydalanuvchiga moslashtirilishi algoritmlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu algoritmlar foydalanuvchilarning o‘zlari izlagan va o‘zaro aloqada bo‘lgan kontent asosida ularga mos axborotni taklif etadi. Algoritmik filtrlar orqali foydalanuvchilar o‘zlariga moslashtirilgan, lekin ayni paytda cheklangan axborotlar bilan ta’minlanadi, bu esa shaxsning dunyoqarashini ma’lum bir yo‘nalishda shakllantiradi. Natijada, foydalanuvchi o‘zining qiziqish doirasidan chiqmagan holda axborot qabul qiladi, va bu cheklangan kontent bazasiga asoslanib, dunyoqarashi torayib qolishi yoki ayrim masalalarda bir tomonlama qarash hosil bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

“Filtr pufagi” va “echo effect” (aks-sado effekti) raqamli dunyoqarash shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. “Filtr pufagi” algoritmlar orqali foydalanuvchini faqat o‘zi qiziqadigan yoki ishonadigan ma’lumotlar bilan ta’minlash natijasida yuzaga keladi. Foydalanuvchi shu kabi bir yo‘nalishdagi axborot bilan tez-tez duch kelganida, uning e’tiqod va qarashlari mustahkamlanib, boshqa nuqtai nazarlarga ochiqligi kamayadi. “Echo effect” esa foydalanuvchining o‘xshash fikrlarni qayta-qayta eshitishi natijasida paydo bo‘lib, o‘zining qarashlari to‘g‘ri ekaniga ishonchini oshiradi. Shu orqali foydalanuvchilar faqat o‘ziga mos keluvchi axborotlar ichida qolib ketib, qarashlari cheklanadi va bir tomonlama fikrlashga moyil bo‘lib qoladi. [2].

Ijtimoiy tarmoqlar, shuningdek, virtual do‘stlik va guruhlarning shakllanishiga imkon yaratadi. Foydalanuvchilar qiziqishlariga mos keladigan guruhlar va do‘stlik tarmoqlarini o‘rnatish orqali yangi axborotlar, nuqtai nazarlar

va qarashlarga ega bo‘lishadi. Bu ijtimoiy guruhlar nafaqat do‘stlar bilan muloqot qilish uchun, balki o‘z fikrlarini sinab ko‘rish, turli mavzularda munozara qilish va yangi nuqtai nazarlarga ochiqlikni oshirish uchun ham foydalidir. Masalan, global ijtimoiy tendensiyalar, siyosiy qarashlar yoki madaniy me’yorlarga oid guruhlarga qo‘shilgan foydalanuvchilar ular bilan muloqot qilar ekan, dunyoqarashini boyitadi va yangi qarashlarni o‘ziga singdiradi.

Biroq, ijtimoiy guruhlar ham ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Foydalanuvchilar o‘ziga mos keladigan fikrlar va qarashlarga ega insonlar bilan birlashganda, ushbu muhit ularning qarashlarini mustahkamlaydi, lekin ayni paytda boshqa nuqtai nazarlarga nisbatan yopiq bo‘lib qolish xavfi ham mavjud. Shu sababli, ijtimoiy guruhlar va virtual do‘stlik raqamli dunyoqarashni boyitishga xizmat qilsa-da, o‘sha doirada o‘zaro bir xil fikrlash kuchaysa, dunyoqarashni bir tomonlama qilib qo‘yishi mumkin.

Umuman olganda, algoritmik filtrlar, “filtr pufagi” va “echo effect” bilan ijtimoiy guruhlarning ta’siri orqali shakllangan raqamli dunyoqarash shaxsning global va mahalliy voqealarga nisbatan qarashlarini sezilarli darajada o‘zgartiradi. Bu jarayonning ijobiy tomoni sifatida shaxsning turli nuqtai nazarlarni bilishi va global axborotga ochiqligini ko‘rsatish mumkin, biroq uning cheklangan axborotlar doirasida qolishi va boshqa qarashlarga nisbatan yopiq bo‘lib qolish xavfi ham mavjud.

O‘zbekistonda raqamli dunyoqarashning shakllanishi:

O‘zbekistonda yoshlarning raqamli dunyoqarashi qanday shakllanishini o‘rganish maqsadida so‘rovnoma va intervyu usullari qo‘llanildi. Ishtirokchilarga turli mavzulardagi savollar bilan murojaat qilinib, ularning ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyati, axborot qabul qilish odatlari, shuningdek, axborotning shaxsiy qarashlariga qanday ta’sir ko‘rsatishi o‘rganildi. So‘rovnoma ishtirokchilari yoshlar orasidan tanlab olinib, ulardan ijtimoiy tarmoqlar orqali qanday axborotlarni ko‘proq qabul qilishlari va ushbu axborotning ularning shaxsiy dunyoqarashiga qanday ta’sir ko‘rsatishi haqida so‘raldi.

O‘zbekistonda yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlar orqali qabul qilinadigan axborot shaxsiy qarashlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Aksariyat hollarda yoshlar global tendensiyalarni kuzatish va o‘z qarashlarini ushbu trendlarga moslashtirishga intilmoqda. Misol uchun, ko‘plab yoshlar uchun xalqaro yangiliklar, turmush tarzi bo‘yicha maslahatlar, zamonaviy madaniyat va iste’mol talablari asosida shakllangan kontent juda qiziq va muhim sanaladi. Ular global axborotni qabul qilish orqali o‘z qarashlarini boyitish va kengaytirishga harakat qiladilar, shu bilan birga, ular o‘zini global madaniyatning bir qismi sifatida his qilishadi. [3]

Bu jarayon yoshlarning zamonaviy texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarga bog‘liqligini kuchaytirib, ularning axborot manbalariga nisbatan ishonchini oshiradi. Yoshlar o‘zlarini ijtimoiy tarmoqlarda mavjud turli madaniyatlar va fikrlarga ochiq his qiladilar, bu esa ularning raqamli dunyoqarash shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

Raqamli dunyoqarashning afzalliklari orasida yoshlarning global madaniyat va voqealarga nisbatan ochiqligi, ularning turli madaniyatlar va tendensiyalarga moslashuvchanligi ko‘zga tashlanadi. Yoshlar o‘zlarini global axborot oqimidan xabardor his qilib, turli nuqtai nazarlarni o‘z dunyoqarashiga qo‘shishga moyildirlar. Shu tariqa, ular nafaqat O‘zbekiston ichida, balki butun dunyoda bo‘layotgan voqea-hodisalar haqida kengroq ma’lumot olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar, bu esa ularning ochiq fikrliligini va zamonaviy axborotga tez moslashuvchanligini kuchaytiradi.

Biroq, raqamli dunyoqarashning kamchiliklari ham mavjud. Yoshlar global tendensiyalarga ortiqcha e’tibor qaratib, mahalliy madaniyat va qadriyatlarni e'tibordan chetda qoldirishi mumkin. Ular ko‘pincha mahalliy madaniyat bilan mos kelmaydigan qiziqishlar va qarashlarni o‘zlashtirib, o‘z milliy identifikatsiyasiga nisbatan zaifroq bo‘lib qolishlari mumkin. Shu sababli, raqamli dunyoqarashning shakllanishi yoshlarning ochiq va jahonqarashga boy bo‘lishiga yordam bersa-da, bu jarayon davomida ularning milliy qadriyat va an’analarini saqlashga ehtiyotkorlik bilan yondashish zarur.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida ijtimoiy tarmoqlar shaxs dunyoqarashiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. “Raqamli dunyoqarash – bu shaxsning globallashuv sharoitida ijtimoiy tarmoqlar orqali shakllanadigan, raqamli axborot muhiti, madaniyatlararo muloqot va virtual munosabatlar natijasida paydo bo‘ladigan, zamonaviy dunyoqarashning o‘ziga xos turi.” [4] Deya mualliflik tarifi ishlab chiqildi. “Raqamli dunyoqarash” yangi tushunchasi orqali shaxsning global madaniyat, turli ijtimoiy tendensiyalar va yangiliklarni qabul qilish va ularga moslashish jarayoni aks ettiriladi. Ushbu maqolada raqamli dunyoqarashning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillar, jumladan, ijtimoiy tarmoqlar algoritmlari, filtr pufagi va virtual do‘stlik fenomenlari o‘rganildi. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda yoshlarning raqamli dunyoqarashi shakllanishida ijtimoiy tarmoqlarning roli sezilarli ekanligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, raqamli dunyoqarash jarayonida yoshlarning milliy qadriyat va madaniyatlarga bo‘lgan e’tiborini saqlab qolish zarurati ta’kidlandi. Kelajakda raqamli dunyoqarashning yoshlar psixologiyasi va ijtimoiy o‘zgarishlarga uzoq muddatli ta’sirini o‘rganishga qaratilgan qo‘shimcha ilmiy tadqiqotlar olib borish tavsiya etiladi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda quyidagi tavsiylarni taqdim etamiz:

Globallashuv davrida raqamli dunyoqarashning shakllanishi axborot oqimining shaxsiylashtirilishi va filtrlanishi orqali boshqariladi. Shu sababli, bu jarayonni nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy tarmoqlarda ko‘rsatiladigan axborotlar yoshlarning dunyoqarashiga kuchli ta’sir qilayotgani bois, shaxsiylashtirilgan axborotning xolisligi va ishonchliligini ta’minlash kerak. Algoritmlar orqali axborot faqat tor bir yo‘nalishda taqdim etilmasligi uchun, turli manbalar va qarashlarga ham ochiqlikni saqlash zarur. Bu esa yoshlarning ko‘p qirrali dunyoqarashni shakllantirishlariga yordam beradi va raqamli pufaklar ichida qolib ketish xavfini kamaytiradi.

Madaniy uyg‘unlikni saqlash. O‘zbekistonda raqamli dunyoqarash shakllanishida yoshlarning mahalliy madaniyat va qadriyatlarga bo‘lgan e’tiborini saqlash juda muhimdir. Yoshlar globallashuv ta’sirida boshqa madaniyatlar va qadriyatlar bilan tanishish orqali bilimlarini kengaytirsalar ham, o‘z milliy identifikatsiyasini va o‘ziga xos qadriyatlarini saqlab qolishlari zarur. Shu sababli, O‘zbekiston sharoitida raqamli dunyoqarash yoshlarning o‘z milliy qadriyatlarini anglashiga, tarixiy meros va madaniy an’analarga hurmat bilan yondashishiga xizmat qiladigan tarzda shakllanishi kerak. Bu yo‘lda milliy media va ta’lim muassasalari muhim rol o‘ynab, yoshlar orasida mahalliy qadriyatlar targ‘ibotiga katta e’tibor qaratishi lozim.

Kelajak uchun ilmiy tadqiqot. Raqamli dunyoqarashning shakllanishi sohasida ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish zarur. Ijtimoiy psixologiya, sotsiologiya va falsafa sohalarida raqamli dunyoqarashning uzoq muddatli ta’sirini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyatga ega. Kelajakda bu sohada olib boriladigan tadqiqotlar ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar dunyoqarashiga ta’sir mexanizmlarini chuqurroq tahlil qilish va ularning salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun samarali choralarni ishlab chiqishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, raqamli dunyoqarashning o‘zgaruvchan xususiyatlari va uning milliy va global qarashlarga qanday ta’sir qilayotganini chuqurroq o‘rganish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Castells, M. (2010). The Rise of the Network Society. Oxford: Wiley-Blackwell.

2. Boyd, D. (2014). It’s Complicated: The Social Lives of Networked Teens. Yale University Press.

3. Turkle, S. (2011). Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. New York: Basic Books.

4. Pariser, E. (2011). The Filter Bubble: What the Internet is Hiding from You. New York: Penguin Press.

5. Bakardjieva, M. (2005). Internet Society: The Internet in Everyday Life. London: Sage Publications.